Mazkur ilmiy maqolada investitsiya ko'chmas mulki hisobini tashkil etishning nazariy va uslubiy asoslari tahlil qilinib, amaldagi hisob amaliyotidagi mavjud muammolar aniqlanadi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takomillashtirish yo'nalishlari ishlab chiqiladi. Shuningdek, investitsiya ko'chmas mulkiga oid axborotlarning moliyaviy hisobotlarda haqqoniy va shaffof aks ettirilishini ta'minlash, xalqaro tajriba asosida hisob siyosatini takomillashtirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda axborot sifatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Natijada ushbu tadqiqot investitsiya ko'chmas mulki hisobini yanada samarali tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari investitsiya ko'chmas mulkini to'g'ri tasniflash, haqqoniy o'lchash va moliyaviy hisobotlarda shaffof tarzda oshkor etish jarayonlarini yanada mukammallashtirishga xizmat qiladi. Natijada investitsion muhitda axborotning aniqligi va foydaliligi ortib, investorlarning ishonchi kuchayadi hamda bozorning barqaror rivojlanishi uchun qulay sharoit shakllanadi.

Iqtisodchi olimlar Karl A. Muller, Edvard J. Riedl va Torsten Sellhorn tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, Yevropa ko'chmas mulk kompaniyalarida IAS 40 doirasida haqqoniy qiymat (Fair value – FV) ma'lumotlarini 2005-yildan boshlab majburiy oshkor etish bozor shaffofligini oshirgan va axborot assimetriyasini kamaytirgan. Ularning taqqoslash tahliliga ko'ra, majburiy ravishda FV oshkor qila boshlagan firmalarda bid-ask spreadlarining qisqarishi ixtiyoriy ravishda oshkor qilgan kompaniyalarga nisbatan sezilarli bo'lgan. Biroq, majburiy guruhda axborot assimetriyasi hanzu yuqoriroq darajada qolgan, bu esa majburiy FV baholarining sifat darajasi va ekspertiza kuchiga bog'liqligi bilan izohlanadi. Shunday qilib, FV modelini keng tatbiq etish axborot sifatini yaxshilash imkonini beradi, ammo natijadorlik baholash sifati va ishonchliligiga bevosita bog'liqdir. [1]

Quagli va F. Avallone tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Yevropa REITlar va ko'chmas mulk kompaniyalarida IAS 40 doirasida haqqoniy qiymat (Fair value – FV) yoki tannarx (cost) modelini tanlash omillari tahlil qilingan. Mualliflar xulosasiga ko'ra, menejrlarning tanlovi nafaqat agentlik muammolarini kamaytirish (masalan, monitoring va shaffoflik ehtiyojlari), balki institutsional muhit va kontraktlashtirishdagi cheklovlar bilan ham chambarchas bog'liq. Ular qarz shartnomalaridagi bandlar, baholash xarajatlari va baholash infratuzilmasining mavjudligi tanlovga bevosita ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Empirik natijalar shuni anglatadiki, bozori faol va baholash infratuzilmasi rivojlangan yurisdiksiyalarda kompaniyalar FV modelidan kengroq foydalanadilar. Aksincha, haqqoniy qiymatni ishonchli aniqlash qimmat yoki murakkab bo'lgan sharoitlarda firmalar tannarx modelini qo'llashga moyil bo'ladilar. [2]

Igor Goncharov, Edvard J. Riedl va Torsten Sellhorn olib borgan tadqiqotlarda investitsiya ko'chmas mulkini haqqoniy qiymat asosida hisobga olishning audit xarajatlariga bevosita ta'siri aniqlangan: bunday yondashuv qo'llanilganda baholash jarayonlari murakkablashib, audit tekshiruvlari hajmi ham ortadi, ayniqsa ekspert baholariga tayangan holda qiymat belgilovchi tashkilotlarda tekshiruv yanada murakkablashadi va bu auditorlarning ko'proq vaqt hamda resurs sarflashiga sabab bo'ladi. Natijada audit xarajatlari oshadi, bu esa haqqoniy qiymat usuli nafaqat axborot sifatini yaxshilash, balki qo'shimcha moliyaviy yuk ham keltirishini ko'rsatadi. Shuning uchun IAS 40 doirasida model tanlashda "foyda-xarajat" muvozanatini hisobga olish amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. [3]

Hans B. Christensen va Valeri V. Nikolaev olib borgan tadqiqotlarda bozor sharoitida, ya'ni regulyator talabi emas, balki bozor kuchlari hal qiladigan vaziyatlarda moliyaviy bo'lmagan aktivlar uchun haqqoniy qiymat usulini tanlash jarayoni tahlil qilingan. Ularning kuzatuvlariga ko'ra, amaliyotda haqqoniy qiymatdan foydalanish imkoniyati cheklangan bo'lib, tanlov asosan baholashning qanchalik ishonchli va arzon tarzda amalga oshirilishi, shuningdek operatsion natijalar haqida foydalanuvchilarga qo'shimcha ma'lumot bera olish



darajasi bilan belgilanadi. Xususan, likvid bo'lmagan va yuqori darajada noaniq aktivlarda, jumladan ko'chmas mulk sohasida, odatda tannarx asosidagi model qo'llanadi; haqqoniy qiymat esa baholash infratuzilmasi rivojlangan, monitoring talablari kuchli va foydalanuvchilar uchun qo'shimcha axborotning ahamiyati yuqori bo'lgan sharoitlarda samaraliroq hisoblanadi. [4]

Stefan Sundgren, Juha Maki va Antonio Somoza-Lopezning ilmiy izlanishlari shuni ko'rsatadiki, Yevropa ko'chmas mulk kompaniyalarida IAS 40 va keyinchalik IFRS 13 standartlari talab qilgan haqqoniy qiymat haqidagi izohlarning sifati bozor omillari bilan chambarchas bog'liq. Xususan, tahlilchilar tomonidan faolroq kuzatiladigan firmalarda bunday izohlar ancha batafsil va sifatli bo'ladi, bozor likvidligi past bo'lgan aksiyalarda esa haqqoniy qiymat bo'yicha yaxshiroq izoh berilishi narxlar o'rtasidagi tafovutni qisqartirishga yordam beradi. Bu natijalar shuni anglatadiki, izohlarning sifati yuqori bo'lsa, ularning o'ziyiq axborot assimetriyasini kamaytiradi va kapital bozorlarida tranzaksiya xarajatlarini pasaytiradi; ayniqsa investitsiya ko'chmas mulkida noaniqligi yuqori bo'lgan 3-daraja kiritmalari ko'p bo'lgan kompaniyalar uchun bunday izohlar alohida ahamiyat kasb etadi. [5]

Stella So va Malsolm Smith tomonidan olib borilgan tadqiqotda haqqoniy qiymat o'zgarishlarini foyda va zarar hisobotida aks ettirishning bozor bahosiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, haqqoniy qiymatdagi o'zgarishlar daromad va zarar hisobotida ko'rsatilganda bozor narxlar reaksiyasi ham qisqa muddatda, ham uzoq muddatda ancha kuchliroq bo'ladi va bu o'zgarishlarning rentabellik bilan bog'liqligi mustahkamroq namoyon bo'ladi. Ushbu kuzatuvlar haqqoniy qiymat o'zgarishlarini revalyatsiya rezervida cheklab qo'yishdan ko'ra, ularni daromad hisobotida e'tirof etish investorlar uchun ma'lumotning qiymatini oshiradi degan "taqdimotning ahamiyati" tezisini tasdiqlaydi. [6]

Michael E. Olante va Sandro boshchiligidagi mualliflar jamoasi Yevropa tajribasi misolida IAS 40 doirasida haqqoniy qiymat va tannarx modellari o'rtasidagi tanlovni ko'p omilli yondashuv asosida qayta tahlil qilgan. Ularning tadqiqotida menejerlar qarori bir vaqtning o'zida bir nechta omillar bilan izohlanadi: moliyaviy shaffoflik talablari, qarz shartnomalarida belgilangan majburiyatlar, soliqqa oid jihatlar, baholash infratuzilmasining xarajatlari va korporativ boshqaruv tizimining darajasi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, haqqoniy qiymat modelini tanlagan kompaniyalar odatda bozor bilan faolroq aloqada bo'ladi, tashqi baholovchi mutaxassis xizmatlaridan kengroq foydalanadi va haqqoniy qiymat bo'yicha izohlarni yanada batafsil taqdim etadi. Aksincha, baholash infratuzilmasi zaif yoki baholash natijalarining ishonchiligi past bo'lgan muhitda tannarx modeli ustunlik qiladi va amaliy jihatdan ko'proq qo'llaniladi. [7]

Torsten Sellhornning ilmiy maqolasida uzoq muddatli nomoliyaviy aktivlar, jumladan investitsiya ko'chmas mulkini haqqoniy qiymat asosida o'lchash masalasi foydalanuvchilar uchun ahamiyati, ishonchiligi va xarajat hamda foyda muvozanati nuqtayi nazaridan umumlashtirib tahlil qilinadi. Muallif mavjud dalillarni jamlab, likvidligi past aktivlarda haqqoniy qiymatdan olinadigan foyda asosan oshkor etishning sifati, tashqi ekspertlarning jalb etilishi va boshqaruvning samarali nazorati orqali ta'minlanishini qayd etadi. Shu bilan birga, yuqori noaniqlikdagi baholash kiritmalari (3-daraja) ko'pligi kuzatilgan hollarda audit va baholash xarajatlari keskin oshishi ta'kidlanadi. Xulosa sifatida, IAS 40 doirasida haqqoniy qiymatning "foyda-xarajat" profili institutsional muhitga juda sezgir bo'lib, u turli mamlakat va bozor sharoitlarida bir xil natija bermasligi ko'rsatiladi. [8]

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda investitsiya ko'chmas mulki hisobini tashkil etish va uni takomillashtirish masalalarini yoritishda umumilmiy hamda maxsus tadqiqot usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Xususan, ilmiy bilishning tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash, guruhlash, kuzatish hamda tizimli yondashuv usullari asosida investitsiya ko'chmas mulkining iqtisodiy mazmuni, uning buxgalteriya hisobidagi o'rni va moliyaviy hisobotdagi aks ettirish xususiyatlari o'rganildi. Shuningdek, milliy va xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar hamda amaliyotdagi mavjud yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinib, investitsiya ko'chmas mulki hisobi bilan bog'liq nazariy va uslubiy masalalar tadqiq etildi.

Tadqiqot jarayonida investitsiya ko'chmas mulkini e'tirof etish, baholash, hisobga olish va hisobotlarda aks ettirish amaliyoti monografik hamda qiyosiy tahlil usullari orqali baholandi. Mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishda mantiqiy umumlashtirish, iqtisodiy tahlil hamda ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Shu asosda investitsiya ko'chmas mulki hisobini takomillashtirishga oid ilmiy xulosalar shakllantirilib, ularni amaliyotga joriy etish imkoniyatlari asoslab berildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsiya ko'chmas mulki hisobi amaliyotini o'rganish shuni ko'rsatadiki, mazkur aktivlarni tan olish, tasniflash, baholash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish jarayonlarida bir qator uslubiy hamda tashkiliy muammolar mavjud. Xususan, investitsiya ko'chmas mulkini asosiy vositalardan ajratishda yagona mezonlarning



yetishmasligi, dastlabki qiymat modeli bo'yicha amortizatsiya hisobining alohida tizimlashtirilmaganligi, rekonstruksiya va joriy ta'mir xarajatlarining iqtisodiy mazmuniga ko'ra noto'g'ri guruhlanishi, shuningdek, aktivlarning daromadlilikini tezkor baholash mexanizmlarining sustligi hisob ma'lumotlarining to'liqligi va ishonchiligi salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, o'tkazilgan tadqiqotlarimiz natijasida taklif etilgan ilmiy yondashuvlar investitsiya ko'chmas mulki hisobini alohida schotlar, metodik yo'riqnomalar va ichki nazorat vositalari asosida tizimlashtirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Tahlil natijasida aniqlanishicha, investitsiya ko'chmas mulki hisobini takomillashtirishda eng muhim yo'nalishlar sifatida: 0195 – "Investitsiya ko'chmas mulki" schotini joriy etish, 0295 – "Investitsiya ko'chmas mulkining amortizatsiyasi" kontr-aktiv schotidan foydalanish, rekonstruksiya va joriy ta'mir xarajatlarini ajratish bo'yicha metodik yo'riqnoma ishlab chiqish, daromadlilikni raqamli kuzatuv paneli orqali monitoring qilish, adolatli qiymat modeli uchun 8540 – "Investitsion ko'chmas mulkni qayta baholash bo'yicha rezerv" schotini qo'llash hamda moliyaviy hisobotlarda oshkor etish tartibini standartlashtirish alohida ajralib turadi. Mazkur takliflar hisobning nafaqat texnik tomonini, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini ham yaxshilashga xizmat qiladi. Chunki investitsiya ko'chmas mulki bo'yicha shakllantiriladigan axborot nafaqat balans qiymatini, balki daromadlilik, tavakkalchilik, bozor o'zgarishi va kelgusidagi investitsion strategiyani belgilashda ham asosiy manba hisoblanadi.

Izlanishlarimiz natijasi sifatida ilgari surilgan takliflar ichida aktivlarni to'g'ri tasniflashga doir mualliflik yondashuvi alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Chunki ko'plab xo'jalik yurituvchi subyektlarda bino va inshootlarning bir qismi ijaraga berilib, boshqa qismi esa korxonaning o'z faoliyati uchun foydalanilganda ularni to'g'ri guruhlash masalasi murakkablashadi. Taklif etilgan maxsus yo'riqnoma bu holatda obyekt qismlarini alohida baholash imkoniyati bo'lsa, ijaraga berilgan qismini investitsiya ko'chmas mulki, korxonaga foydalanayotgan qismini esa asosiy vosita sifatida tan olishni nazarda tutadi. Bu esa aktivlarning iqtisodiy mazmuniga mos tasniflashni ta'minlab, moliyaviy hisobotlarda noto'g'ri aks ettirish xavfini kamaytiradi.

Bundan tashqari, ijaraga berilgan investitsiya ko'chmas mulkidan olinadigan daromad barqarorligi ko'p jihatdan ijarachining to'lov intizomi va moliyaviy holatiga bog'liq. Shu bois, izlanishlarda ishlab chiqilgan "To'lovga qobiliyatsizlik xavfi kartasi" amaliy nuqtayi nazardan muhim ahamiyatga ega bo'lib, u ijarachilarni saralash, ularning ishonchiligi baholash va kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan daromad yo'qotishlarini oldindan aniqlash imkonini beradi. Mazkur yondashuv investitsiya ko'chmas mulki hisobi bilan risk-menejment o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kuchaytiradi. Xuddi shuningdek, yagona ijara shartnomasi shablonining joriy etilishi shartnomalarni rasmiylashtirishdagi tafovutlarni bartaraf etib, daromadlarni e'tirof etish va debitorlik qarzlarni nazorat qilish jarayonini soddalashtiradi.

Quyidagi jadvalda investitsiya ko'chmas mulki hisobini takomillashtirishga doir asosiy takliflarning mazmuni, ularning bartaraf etadigan muammosi va kutilayotgan natijalari tizimlashtirildi (1-jadval).

1-jadval. Investitsiya ko'chmas mulki hisobini takomillashtirishga doir asosiy takliflarning analitik tavsifi<sup>1</sup>

No	Asosiy muammo	Taklif mazmuni	Hisob obyektiga ta'siri	Boshqaruv va tahlilga ta'siri
1	Investitsiya ko'chmas mulki boshqa uzoq muddatli aktivlar tarkibida "yo'qolib" ketishi	0195 – "Investitsiya ko'chmas mulki" schotini joriy etish	Investitsiya obyektlari alohida hisobga olinadi, ularning qiymati, daromadi va xarajatlari ajratib ko'rsatiladi	Rahbariyat investitsiya aktivlari ulushi va samaradorligini alohida ko'ra oladi
2	Dastlabki qiymat modeli bo'yicha eskirish summalari umumiy amortizatsiya ichida noaniqlashadi	0295 – "Investitsiya ko'chmas mulkining amortizatsiyasi" kontr-aktiv schotini joriy etish	Amortizatsiya summasi, qoldiq qiymat va eskirish dinamikasi aniq aks etadi	Har bir obyekt bo'yicha iqtisodiy samaradorlikni baholash imkoniyati kengayadi
3	Rekonstruksiya va joriy ta'mir xarajatlari noto'g'ri tasniflanishi	Xarajatlarni kapitalizatsiya qilinadigan va joriy davr xarajatlariga ajratish bo'yicha metodik yo'riqnoma	Aktiv qiymatiga qo'shiladigan xarajatlardan va davr xarajatlari aniq farqlanadi	Xarajatlarni rejalashtirilishi va amortizatsiya bazasi to'g'ri shakllanadi
4	Aktiv daromadlilik bo'yicha tezkor va tizimli ma'lumot yetishmasligi	Raqamli daromadlilik kuzatuv panelini yaratish	Ijara daromadi, sof daromad, rentabellik, o'zini oqlash muddati doimiy kuzatiladi	Past va yuqori daromadli obyektlar bo'yicha tezkor qaror qabul qilinadi

1 Jadval manbasi: muallif tomonidan ilmiy izlanishlar natijasida ilgari surilgan takliflar asosida tuzildi.



5	Adolatli qiymat o'sishining moliyaviy natijalarga noto'g'ri aralashuvi	8540 – "Qayta baholash bo'yicha rezerv" schotini joriy etish	Qayta baholashdan hosil bo'lgan qiymat o'sishi kapital tarkibida aks ettiriladi	Kapital tarkibi va qiymat o'zgarishlari tahlili aniqlashadi
6	Bozor qiymatini aniqlashda subyektivlik va kechikishlar mavjud	Har yili mustaqil baholovchi orqali qayta baholash tartibini joriy etish	Aktivlarning bozor qiymati muntazam yangilanadi	Investitsiya qarorlarida xatoliklar kamayadi
7	Tasniflashda tushunchaviy chalkashliklar mavjud	Investitsiya ko'chmas mulkining mualliflik ta'rifini va tasniflash mezonlarini joriy etish	Investitsiya maqsadidagi aktivlar boshqa aktivlardan aniq ajratiladi	Noto'g'ri guruhlash va noto'g'ri hisob yuritish xavfi kamayadi
8	Aralash foydalaniladigan binolarni to'g'ri hisobga olish qiyin	Bino qismlarini alohida baholash va tasniflash yo'riqnomasini joriy etish	Ijaraga berilgan qism va operatsion qism alohida aks ettiriladi	Aktivlardan foydalanish samaradorligi real baholanadi
9	Ijarachilar bilan bog'liq to'lov xavfi oldindan ko'rinmaydi	"To'lovga qobiliyatsizlik xavfi kartasi"ni joriy etish	Debitorlik riski va kutilayotgan daromad xavfi baholanadi	Ishonchsiz ijarachilar bo'yicha tezkor choralar ko'riladi
10	Ijara shartnomalarining turlicha rasmiylashtirilishi hisobdagi farqlarga sabab bo'ladi	Yagona ijara shartnomasi shablonini joriy etish	Daromadni tan olish, penya, xizmat ko'rsatish va majburiyatlar bir xil qayd etiladi	Filiallar va bo'linmalar o'rtasida yagona standart shakllanadi
11	Moliyaviy hisobotlarda oshkor etish darajasi yetarli emas	Investitsiya ko'chmas mulkiga oid ma'lumotlarni ochib berish bo'yicha uslubiy yo'riqnomasi	Ijara daromadi, ta'mirlash xarajatlari, baholash natijalari va risklar yoritiladi	Foydalanuvchilar uchun axborot sifati yaxshilanadi
12	Baholash modelini tanlashda izchil siyosat mavjud emas	Adolatli qiymat modeli yoki dastlabki qiymat modelini izchil qo'llash bo'yicha ichki siyosat	Baholashdagi qarama-qarshiliklar bartaraf etiladi	Uzoq muddatli taqqoslash va tahlil imkoniyati ortadi

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, taklif etilgan chora-tadbirlar investitsiya ko'chmas mulki hisobini takomillashtirishda o'zaro bog'liq va ketma-ket ta'sir mexanizmini hosil qiladi. Avvalo, 0195 va 0295 schotlarining joriy etilishi investitsiya ko'chmas mulkining dastlabki qiymati, amortizatsiyasi, qoldiq qiymati va daromadlilik ko'rsatkichlarini alohida qatlamda aks ettirish imkonini beradi. Bu esa aktivlarning moliyaviy hisobotdagi ko'rinishini ancha aniqlashtiradi. Ikkinchi bosqichda rekonstruksiya va joriy ta'mir xarajatlarini ajratish bo'yicha metodik yondashuv aktiv qiymatini sun'iy ravishda oshirib yoki kamaytirib yuborish holatlarini bartaraf etadi. Natijada investitsiya ko'chmas mulki bo'yicha moliyaviy natijalar, ayniqsa foyda va rentabellik ko'rsatkichlari, yanada haqqoniy shakllanadi.

Amaliy natijalar nuqtayi nazaridan, raqamli daromadlilik kuzatuv paneli va to'lovga qobiliyatsizlik xavfi kartasi joriy etilishi investitsiya ko'chmas mulki hisobini passiv qayd etish tizimidan faol boshqaruv vositasiga aylantiradi. Chunki mazkur vositalar yordamida ijradan olinayotgan daromadning barqarorligi, ijarachi ishonchliligi, aktiv rentabelligi va o'zini oqlash muddati muntazam kuzatib boriladi. Bu esa faqat hisobot tayyorlash uchun emas, balki investitsiya portfelini optimallashtirish, zararli yoki past rentabelli obyektlarni aniqlash, shuningdek, yangi investitsiya yo'nalishlarini tanlash uchun ham muhim analitik baza yaratadi. Demak, taklif etilgan yondashuvlar investitsiya ko'chmas mulki hisobi funksiyasini nazorat, tahlil va strategik boshqaruv bilan integratsiyalashgan tizimga aylantiradi.

Shuningdek, adolatli qiymat modeli bo'yicha 8540-schotning joriy qilinishi va har yillik mustaqil baholash tartibining qo'llanishi investitsiya ko'chmas mulki qiymatidagi o'zgarishlarni moliyaviy natijalardan ajratilgan holda, kapital tarkibida shaffof aks ettirish imkonini beradi. Mazkur yondashuv, bir tomondan, bozor qiymati o'zgarishlarining korxonalar aktivlari tarkibiga ta'sirini aniq ko'rsatadi, ikkinchi tomondan esa davr foydasining sun'iy tebranishlarini kamaytiradi. Natijada hisobot foydalanuvchilari uchun investitsiya ko'chmas mulkining real bozor salohiyati, daromadlilik darajasi va risklari to'g'risidagi axborot sifati oshadi. Bu esa moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga yaqinlashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy izlanishimizda ilgari surilgan takliflarning yana bir muhim natijasi shundaki, ular investitsiya ko'chmas mulkini tan olish va tasniflashdagi uslubiy noaniqliklarni kamaytiradi. Mualliflik ta'rif, aralash foydalaniladigan obyektlar bo'yicha yo'riqnomasi va yagona ijara shartnomasi shabloni birgalikda qo'llanilganda, investitsiya ko'chmas mulkining tarkibi, undan olinadigan daromadlar, unga tegishli xarajatlar va u bilan bog'liq risklar



bo'yicha yaxlit axborot maydoni shakllanadi. Mazkur holat nafaqat buxgalteriya hisobi sifatini, balki ichki nazorat, audit va boshqaruv qarorlarining ishonchligini ham oshiradi. Shunday qilib, tadqiqotda taklif etilgan yondashuvlar investitsiya ko'chmas mulki hisobini tashkil etishning tashkiliy, uslubiy va axborot-boshqaruv jihatlarini kompleks takomillashtirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, investitsiya ko'chmas mulki hisobini tashkil etish va takomillashtirish xo'jalik yurituvchi subyektlarda aktivlar tarkibini to'g'ri shakllantirish, ularning daromadligini haqqoniy baholash hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, investitsiya ko'chmas mulkini boshqa uzoq muddatli aktivlardan aniq ajratish, ularning dastlabki va keyingi baholanishini tartibga solish, amortizatsiya, qayta baholash, ta'mirlash xarajatlari hamda ijara daromadlarini alohida va tizimli hisobga olish ushbu aktivlar bo'yicha axborot sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Natijada investitsiya ko'chmas mulki bo'yicha shakllanadigan hisob axborotlari nafaqat moliyaviy hisobotlarni tuzishda, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ham muhim analitik manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot asosida investitsiya ko'chmas mulki hisobini takomillashtirish bo'yicha bir qator amaliy takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, investitsiya ko'chmas mulkini alohida 0195-schotda hisobga olish, uning amortizatsiyasini 0295-kontr-aktiv schotida aks ettirish, adolatli qiymatdagi o'sishlarni 8540-schot orqali rezerv sifatida yuritish, rekonstruksiya va joriy ta'mir xarajatlarini iqtisodiy mazmuniga ko'ra ajratish, shuningdek, moliyaviy hisobotlarda oshkor etish tartibini uslubiy jihatdan takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, investitsiya ko'chmas mulkining daromadligini monitoring qilish uchun raqamli kuzatuv panelini joriy etish, ijarachilar bo'yicha "to'lovga qobiliyatsizlik xavfi kartasi"dan foydalanish va yagona ijara shartnomasi shablonini qo'llash amaliyotda aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kelgusida investitsiya ko'chmas mulki hisobini yanada rivojlantirish uchun ushbu yo'nalishda xalqaro standartlar asosida yagona ichki hisob siyosatini shakllantirish, investitsiya obyektlarini muntazam mustaqil baholash tizimini yo'lga qo'yish hamda aralash foydalaniladigan ko'chmas mulk obyektlarini tasniflash bo'yicha aniq metodik yondashuvlarni keng joriy etish zarur. Shuningdek, investitsiya ko'chmas mulki bilan bog'liq hisob, tahlil va nazorat jarayonlarini raqamlashtirish, moliyaviy hisobotlarda oshkor etiladigan axborotlar tarkibini kengaytirish hamda boshqaruv ehtiyojlari uchun maxsus analitik ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur takliflarning amaliyotga izchil tatbiq etilishi investitsiya ko'chmas mulki hisobining shaffofligi, aniqligi va boshqaruv samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muller, K. A., Riedl, E. J., & Sellhorn, T. (2011). Mandatory fair value accounting and information asymmetry: Evidence from the European real estate industry. *Management Science*, 57(6), 1138–1153. <https://doi.org/10.1287/mnsc.1110.1339> (Onlayn: INFORMS; Penn State profil sahifasi).
2. Quagli, A., & Avallone, F. (2010). Fair value or cost model? Drivers of choice for IAS 40 in the real estate industry. *European Accounting Review*, 19(3), 461–493. <https://doi.org/10.1080/09638180.2010.496547> (Onlayn: Taylor & Francis/IDEAS RePEc).
3. Goncharov, I., Riedl, E. J., & Sellhorn, T. (2014). Fair value and audit fees. *Review of Accounting Studies*, 19(1), 210–241. <https://doi.org/10.1007/s11142-013-9248-5> (Onlayn: Springer/IDEAS RePEc).
4. Christensen, H. B., & Nikolaev, V. V. (2013). Does fair value accounting for non-financial assets pass the market test? *Review of Accounting Studies*, 18(3), 734–775. <https://doi.org/10.1007/s11142-013-9232-0> (Onlayn: Springer/IDEAS RePEc).
5. Sundgren, S., Mäki, J., & Somoza-López, A. (2018). Analyst coverage, market liquidity and disclosure quality: A study of fair-value disclosures by European real estate companies under IAS 40 and IFRS 13. *The International Journal of Accounting*, 53(1), 54–75. <https://doi.org/10.1016/j.intacc.2018.02.003> (Onlayn: Elsevier).
6. So, S., & Smith, M. (2009). Value-relevance of presenting changes in fair value of investment properties in the income statement: Evidence from Hong Kong. *Accounting and Business Research*, 39(2), 103–118. <https://doi.org/10.1080/0014788.2009.9663352> (Onlayn: Taylor & Francis).
7. Olante, M. E., & hamkorlar. (2022). Investment property: Fair value or cost model? Recent evidence from the application of IAS 40 in Europe. *Advances in Accounting*. [https://doi.org/10.1016/S0882-6110\(21\)00056-0](https://doi.org/10.1016/S0882-6110(21)00056-0) (Onlayn: ScienceDirect sarlavha sahifasi).
8. Sellhorn, T. (2019). Fair value measurement for long-lived operating assets. *European Accounting Review*, 28(4), 573–603. <https://doi.org/10.1080/09638180.2018.1511816> (Onlayn: Taylor & Francis).



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 4

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---